

BO‘SH VAQT HODISASINING IJTIMOIIY MAZMUNI VA QIYMATI.

Rustamov Farrux Rustam o‘g‘li, f.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada bo‘sh vaqtning ijtimoiy mazmuni, uning mohiyati, ijtimoiy jamiyat uchun hayotiy zarurat ekanligi, bo‘sh vaqtning jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashish jarayonida namoyon bo‘lish holati, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etishga oid Sharq allomalarining pedagogik qarashlari talqini, hamjihatlikka erishish jarayonida shaxsning rivojlanishi uchun yuzaga keladigan imkoniyatlar haqida ilmiy tahliliy ma’lumot va nazariyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘sh vaqt, ijtimoiy jamiyat, hayotiy zarurat, jamiyat manfaatlari, hamjihatlik.

Аннотация. В статье излагается социальное содержание досуга, его сущность, жизненная необходимость для социального общества, состояние проявления досуга в процессе гармонизации с интересами общества, интерпретация педагогических взглядов восточных ученых на содержательную организацию досуга, научные аналитические сведения и теории о возможностях, возникающих для развития личности в процессе достижения гармонии.

Ключевые слова: досуг, социальное общество, жизненная необходимость, интересы общества, сплоченность.

Annotation. The article describes the social content of free time, its essence, the fact that it is a vital necessity for Social Society, the state of manifestation of free time in the process of harmonizing with the interests of society, the interpretation of the pedagogical views of Eastern allomas on the meaningful Organization of free time, scientific analytical information and theories about the opportunities

Keywords: leisure, social society, vital necessity, the interests of society, harmony.

Kirish.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini oshirish borasida muhim shart-sharoitlar yaratildi. «Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi, bundan buyon ham eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi»[1] . Hozirda jamiyatni harakatlantiruvchi «lokomotiv»ga aylangan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga daxldorlik ruhida tarbiyalash, bandlik, bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish, ularning kundalik

hayotidagi muammolarni o'rganish tadqiqot mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida", 2018 yil 27 iyundagi PF-5466-sonli "Yoshlar kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risida", 2018 yil 25 sentyabrdagi PF-5545-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha «El-yurt umidi» jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi farmonlari va shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda yoshlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish to'g'risida vazifalar belgilab berilgan.

Asosiy qism: Bo'sh vaqtning ijtimoiy mazmuni ishlab chiqarish yoki hayotiy zarurat masalalari bilan band bo'lmagan vaqtni jamoa, jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashish jarayonida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda jamiyat va jamoadagi yakdillik hamda hamjihatlikka erishish jarayonida shaxsning rivojlanishi uchun ham katta imkoniyat yuzaga keladi.


Bo'sh vaqtning ijtimoiy mazmuni dam olish muddati maydonidan konstruktiv foydalanish, mavjud imkoniyatlarni samarali ro'yobga chiqarishda namoyon bo'ladi. Hordiq hodisasi esa natijaviy ma'noga ega bo'lib, dam olishdan nechog'li foydalanishni ifoda etadi.

Bo'sh vaqt¹ - bu insonning ishlash, uxlash, ta'lim olish vaqtidan tashqari, ijtimoiy faoliyat va o'zaro munosabatlarga ajratilgan vaqt bo'lib, uning shakllantirilishi shartlilik, erkinlik, tanlov kabi o'ziga xos talablar bilan belgilanadi. Bunda:

- ✓ shartlilik: bo'sh vaqt ijtimoiy aniq mehnat faoliyati bilan bog'liq emas.
- ✓ erkinlik: bo'sh vaqt ijtimoiyni inson o'zining xohishiga ko'ra tashkil etadi.
- ✓ tanlov: bo'sh vaqt ijtimoiyda inson o'zini erkin his qiladi va qanday faoliyat bilan shug'ullanishini o'zi tanlaydi.

Bo'sh vaqt quyidagicha tuzilishga ega (1-rasmga qarang).

¹ Mualliflik yondasuvi



1-rasm. Bo'sh vaqt quyidagicha tuzilishi

Bo'sh vaqtning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati:

- ✓ ijtimoiylashtirish: bo'sh vaqt ijtimoiy insonning jamiyatga kirishishi va ijtimoiy normalarni o'zlashtirishiga yordam beradi.
- ✓ hissa qo'shish: bo'sh vaqt ijtimoiy insonning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilaydi.
- ✓ o'zini o'zi rivojlantirish: bo'sh vaqt ijtimoiy insonning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishiga yordam beradi.
- ✓ ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish: bo'sh vaqt ijtimoiy insonning doslar, oila a'zolari va hammaslar bilan aloqalarni rivojlantirishiga yordam beradi.
- ✓ madaniy merosni saqlash va rivojlantirish: bo'sh vaqt ijtimoiy insonning madaniy merosni saqlashi va rivojlantirishiga yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, har bir kishi bo'sh vaqtni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etadi. Bo'sh vaqtlarda inson har qanday faoliyatga, xususan, ijodiyot, iste'molchi, konstruktiv, bandlik, halokatli faoliyat bilan mashg'ullik va boshqalarga berilishi kuzatiladi.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlarida bo'sh vaqtning mazmuni va qiymati kasbiy faoliyatdagi va bevosita mehnat jarayonlariga oqilona yondashishni baholash negizida tasniflangan.

Xususan, «Majolis ul-nafois» tazkirasida Alisher Navoiy o'z davridagi taniqli shaxslarning bilim darajasi, axloqi, dunyoqarashi, mehnatga munosabatini tavsiflab, ularning bo'sh vaqtida nimalar bilan va qanday tarzda mashg'ul bo'lishi kabi jihatlariga alohida e'tibor qaratgan. Har bir shaxsga tavsif berish jarayonida uning bo'sh vaqtda yaratgan ijodidan namunalar ham keltirib, ularning qiziqishlariga alohida ahamiyat qaratgan. Mutafakkir bo'sh vaqtdan oqilona me'yorga rioya qilgan

holda foydalanishga da'vat etib, mabodo me'yor chegarasi buzilgudek bo'lsa, inson hayotining mazmuni va shakli o'zgarib ketishi mumkinligini ta'kidlaydi. Navoiy ayrim zamondoshlarining qiziqishi ustun kelib, ko'p yillik tirikchilik manbai bo'lgan kasbi korini ham o'zgartirganligi haqida ma'lumot bergan⁴⁹.

Ma'lumki, musiqa — insonning ma'naviy kamolotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bo'sh vaqtni musiqaga bag'ishlash keng yoyilgan. Musiqa shaxsning jamiyatga ijtimoiylashuviga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Alisher Navoiy musiqaning inson ruhiyatini yuksaltirishni ta'kidlab, uning xotirjamlik va jangovarlikka, sokinlik va jo'shqinlikka yetaklashi, yig'latishi va kuldirishi, kayfiyatini ko'tarishi xususiyatlarini tahlil qiladi. Bu holatlar insonni ruhiy, aqliy va jismoniy chiniqtirishi, charchog'ini chiqarishi, unga hordiq bag'ishlashi ulug' mutafakkir tomonidan qilingan aniq tasnifda namoyon bo'ladi.

Navoiy musiqa bobida 18 nafar ijodkorni qayd etib ulardan to'rt nafariga alohida to'xtaladi. Xususan, Xoja Abdulvafoyi Xorazmiyning musiqiy salohiyati haqida shunday fikrlar bayon etadi: «Xorazm xalqi g'oyat malakiy sifatlig'idin Xojani «yer farishtasi» derlar erdi va Xoja ulumi zohiriy va botiniyni takmil qilib erdi. Va tasavvufda yaxshi musannofoti bor va mashhurdurkim, ulumi g'ariba ham bilur erdi. Advor va musiqiy ilmida dag'i mahorati bor erdi»⁵⁰.

Binobarin, hazrat Navoiy nazarida she'riyat-ruhiy kamolotning o'ziga xos darajasini namoyon qiluvchi, insonning tuyg'ularini junbushga keltiruvchi, ma'naviy ozuqa beruvchi ne'mat hisoblanadi.

Xususan Alisher Navoiy ulug' mutafakkir Ustod Qulmuhammad haqida shunday fikr berib, uning ruhiy dunyosining nechog'li kengligiga e'tibor qaratadi: «Tolibi ilmliqqa dag'i mashg'uldur. O'zga ushoq fazoyili ham bor: ma'rifati taqvimdek, naqqoshlikdek, xatdek. Ammo ud va g'ijjak va qo'buzni asrida oncha kishi chala olmas va muammo qavoidin ham mazbut bilur»⁵¹.

Shuningdek, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy Xoja Kamoliddin Husayn haqida ham fikr yuritib, bo'sh vaqt insonning nafaqat ruhiy kamolotini ta'minlaydi, balki inson ta'bi, estetik saviyasi, didiga ham ta'sir ko'rsatishni ta'kidlaydi: «nechuk kim, ul vazir erdi, bu vazorat mansabin tay qildi va holo ashrofi oliy martabasida mutamakkindur. O'zi muloyim yigitdur. «Noma» xatin yaxshi bitir. Va derlarki, musiqiyda ham daxli bor va ba'zi naqshlarni anga mansub qilurlar. Tab'i yaxshidur»

Ma'lumki, sport insonni jismoniy hamda ruhiy va aqliy salomatligini mustahkamlaydi. Shaxsni chiniqtirib, kamolotga yetkazadi. Shu boisdan ham sport bo'sh vaqtni o'tkazishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Sport turlari orasida aql gimnastikasi hisoblangan shaxmat ko'p asarlik, uzoq tarix ega. Qadimda shatranj

nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu mashg'ulotning bo'sh vaqtdagi o'rni haqida Alisher Navoiy shunday yozadi:

«Mir Murtoz kecha tong otquncha va kunduz oqshom bo'lg'uncha ishi mutolaa erdi va shatranjg'a andoq mag'lubdurkim, bir harif ilgiga tushsa, xalos bo'la olmas. Bu jihatdin hariflar andin qocharlar. Mashhurdurkim, agar ikki harif ilgiga tushsa, biri bila o'ynab, yana birining etagin berk tutib o'ltururkim, biri qochsa, bori biri ilgida bo'lg'an. Ba har taqdir andoq benazir kishi oz bo'lg'ay»⁵³.

Alisher Navoiyning insonni takomillashtirish maqsadi pirovard nuqtada bo'sh vaqt imkoniyatlarini keng ochish va shaxsni jamoaga ijtimoiylashuviga olib keladi. Shuningdek, Alisher Navoiy asosiy mehnat faoliyatidan tashqaridagi vaqt tasarrufini aql omili va me'yorga rioya qila olish tamoyili bilan bog'laydi.

Shuningdek, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy bir qancha asarlarida hordiqni bo'sh vaqtdan olinadigan ijtimoiy foyda ma'nosida qo'llab, undan samarali foydalanish yuzasidan o'z qarashlarini bildirib o'tgan. Jumladan, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» («Qalblar mahbubi») asarida «safari» so'zi sayr, sayohat, ziyorat qilish, qadamjo va yaqin qarindoshlarining qabrlarini, ustoz va ulug' shaxslarni tavof qilish kabi sifatlar bilan e'tirof etilgan. Asarning uchinchi qismidagi «Safari manofii zikrida» nomli 108-tanbehda safari ma'naviy ruhi sust odamlarni faollashtiruvchi, xom odamlarni pishiruvchi va tanovul etilgan taomlarni singdiruvchi, odamlarni olam ajoyibotlaridan bahramand etuvchi, g'aroyibotlar dunyosidan xabardor qiluvchi omil sifatida ta'riflangan. Aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish, fayzli ulug' zotlar xizmatida izzat va hurmat topmoq ham safarligi ta'kidlangan. Safari ko'ngil vayronligini tuzatib, ruh ko'zgusini ravshan qilishi aytilib, quyidagi fikrlar keltirilgan: «Har kishivarning oroyishini va har manzilning osoyishini safari ahlidin so'r va musofirdin ko'r. Safari qilmag'on orom farog'atin qayda bilsun va g'urbat chekmagan vatanda komraf ohiyatin ne nav' ma'lum qilsun... ».

Hordiqning birinchi va eng muhim qiymati **jismoniy kuch va aqliy muvozanatni** tiklashga xizmat qiladigan **harakat deb** baholasak, inson yo'qotgan energiyasini, ya'ni, asosiy ehtiyojini qondirmasdan turib, ikkilamchi ehtiyojlar ro'yobi bo'yicha harakatning murakkabroq shakllariga o'ta olmaydi. Odatda, dam olib bo'lgan odam ijtimoiylashishning yengil shakllari, ya'ni, do'stlar davrasi, muloqot, o'yin-kulgiga bo'lgan tabiiy ehtiyojni sezadi. Yurish, sayohat qilish, suhbatlashish, o'qish, sport va yopiq o'yinlar, kino, teatrga borish va turli xil sevimli mashg'ulotlar bilan bandlikni hordiqning keyingi bosqichi deyish mumkin.

Ijodkorlik — bu eng erkin faoliyat turi. Inson hayoti ijodkorlik, ijodiy faoliyat uchun joy bo'lgan taqdirdagina to'la bo'lishi mumkin. Chunki aynan ijodda inson

o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Dam olishning keyingi uchinchi **tafakkurdir**. Tafakkur qilish lahzalarida odam o‘zini dunyo bilan birligini, undagi o‘rmini anglaydi. Tafakkur yuritish, o‘ylash, mulohaza qilish insonni nafaqat kamolotga undaydi, balki tinchlantiradi, muvozanatni saqlaydi. Tafakkurning fantaziyali tafakkur, tarixiy tafakkur va o‘z taqdiri ustida o‘ylash kabi turlari mavjud. Tafakkur qilishning ekzistensial muhiti ham yolg‘izlik muhitida yuz beradi. Lekin odam uzoq vaqt yolg‘iz qolishi mumkin emas.

Hordiqning to‘rtinchi bosqichi **ma‘rifatdir**. Ma‘rifat keng ma‘noda bilim, kasb, voqelik sirlarini puxta o‘zlashtirish va boshqalarga uzatishni ifoda etadi. Boshqalarni ma‘naviy-intellektual yoxud kasbiy boyitishga yo‘nalmagan intellekt – ma‘rifat bo‘la olmaydi. Ma‘rifat klassik madaniy meros, birinchi navbatda fan, san‘at, falsafa qadriyatlarini o‘zlashtirish va yoyishda namoyon bo‘ladi. Insonni ma‘rifiy yo‘l bilan ijtimoiylashtirishning eng muhim elementlaridan biri bo‘lgan bayramlar, ma‘raka va marosimlar hordiqning beshinchi bo‘g‘inidir. Zero, bayramlar jamoat, birodarlik tuyg‘usini yaratadi.

Xulosa. Bo‘sh vaqtdan ongli foydalanish qadriyatlar tizimi va qadriyatlar iyerarxiyasini tarkiban va mazmunan shakllantiradi. Bunda odam oddiy shakllardan murakkabroq shakllarga, iste‘mol qilish va madaniyatni o‘zlashtirishdan – ijodkorlikka, tor guruh, oilaviy faoliyatdan – ijtimoiy va madaniy yo‘nalishga o‘tadi. Dam olishning har bir bosqichi dam olish va hordiqiy faoliyatni tanlash bo‘yicha farq qiladi. Eng muhimi, hordiqni tashkil etishda maxsus dominant manfaat omili yashirin mujassamlashgan bo‘lib, u yoki bu qiymatni o‘zida ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti 2017 y. 485bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qadriyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild.-Toshkent –«O‘zbekiston», 2017. 295 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – «O‘zbekiston». – 2017. 47 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021. 464 bet.

6. Argonov V. Yu. The Pleasure Principle as a Tool for Scientific Forecasting of Human Self-Evolution (англ.)// Journal of Evolution and thechnology: journal. 2014.-Vol. 24. P. 63-78.